XALQ DEPUTATLARI SHAYXONTOXUR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 3-yanvar III-5-1-14-205-K/25 Shayxontoxur tumani

Shayxontohur tumanida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil «24»-dekabrdagi “2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1011-sonli Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida 2025-yilda Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorini kiritish va qo‘llash yuzasidan, Xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil «24»-dekabrdagi “2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1011-sonli Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmonining 1-bandi 2-xat boshiga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun daha, massiv va mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish va qo‘llash tartibi joriy etilganligi, 2025-yil O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va Prezidentining Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, Soliq kodeksiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni hisobga olib, tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yilda Noruda qurilish

materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar yuzasidan kiritilgan taklifi ma‘qullansin.

3. Shayxontohur tumanida 2025-yilda Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shayxontohur tumani soliq inspeksiyasi **(X.Mullajonov)**ga:

- byudjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda tumanning iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatilishi uchun Xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan ma’lumot kiritib borsin.

5. Shayxontohur tuman hokimligi va tuman soliq inspeksiyasi, mazkur qarordan kelib chiqqan holda, belgilangan stavkalar, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma‘lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi **(A.Gafurov)** va Shayxontohur tuman hokimining birinchi o‘rinbosari **(I.Sayriddinov)** zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi GAFUROV AZIZ TULKUNOVICH

Xalq deputatlari Shayxontoxur tumani
Kengashining
2025-yil 3-yanvardagi
III-5-1-14-205-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Noruda qurilish materiallari nomi	2025-yil uchun soliq stavkasi *(1 kub metr uchun so‘mda)*	Taklif etilayotgan koeffitsent (0,7 dan 1,3 gacha)	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun so‘mda)*
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	6 160,0	1,1	6 776,0
2	Qum-shag‘al aralashmasi *(qum- shag‘alning karerdagi realizatsiya minimalmiqdoribir metrkubiuchun **20 mingso‘m)***	5 000,0	1,1	5 500,0
3	G‘isht-cherepitsa hom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar	4 620,0	1,1	5 082,0
4	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	15 950,0	1,1	17 545,0
5	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	10 000,0	1,1	11 000,0
6	Marmar	20 000,0	1,1	22 000,0
7	Granitlar	30 000,0	1,1	33 000,0